

**Suvli va suvsiz tuproqda sholi urug`larini unib chiqish xususiyatlari.
(laboratoriya sharoitida)**

**G.M.Amanboyeva – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat
universiteti biologiya mutaxassisligi magistri**

Annotatsiya. Ushbu maqolada laborotriya sharoitida suvli va suvsiz tuproqda sholining Alanga, Navota, Avangard, Lazurniy, Donjin, Diamond, Guliston, Sadaf, Chakvang, Nukus navlari urug`larini unib chiqish muddatlari va maysa hosil qilish xususiyatlarini o`rganish bo`yicha olib borilgan tajriba natijalari haqida ma`lumot berilgan.

Kalit so`zlar: Alanga, Navota, Avangard, Lazurniy, Donjin, Diamond, Guliston, Sadaf, Chakvang, Nukus.

Абстракт. В данной статье представлена информация о результатах экспериментов, проведенных по изучению сроков прорастания семян и особенностей формирования всходов сортов риса Аланга, Навота, Авангард, Лазурный, Донжин, Алмаз, Гулистан, Садаф, Чакванг, Нукус в лабораторных условиях на орошаемых и неорошаемых почвах.

Ключевые слова: Аланга, Навота, Авангард, Лазурный, Донжин, Алмаз, Гулистан, Садаф, Чакванг, Нукус.

Abstract. This article provides information on the results of experiments conducted to study the timing of seed germination and seedling formation characteristics of rice varieties Alanga, Navota, Avangard, Lazurniy, Donjin, Diamond, Guliston, Sadaf, Chakvang, Nukus under laboratory conditions in watered and non-watered soils.

Keywords: Alanga, Navota, Avangard, Lazurniy, Donjin, Diamond, Guliston, Sadaf, Chakvang, Nukus.


Kirish. Mamlakatimizda sholi hozirgacha sug`oriladigan yerlarda ekilib, iqlim o`zgarishlari uning hosildorligiga deyarli ta`sir ko`rsatmaydi. Qurg`oqchilik sharoitlarida ham talab qilinadigan agrotexnologiyalarni o`z vaqtida qo`llashga rioya qilinsa, undan yuqori hosil olish mumkinligi amaliyotda o`z isbotini topgan. So`nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish, eksport hajmini oshirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni tadbiiq etish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanishga alohida e`tibor qaratilmoqda [3]. Bugungi kunda yer yuzida aholi sonining ortishi, iqtisodiyot rivoji hisobiga tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi barcha ekinlar, shu jumladan, sholini yetishtirishda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda qishloq

xo'jaligida suv resurslaridan samarali va tejamli foydalanish, ayniqsa, ekinlarni sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalardan foydalanishni davrning o'zi taqozo etyapti [1].

Jahon tajribasida sholi yetishtirishning bir qancha usullari mavjud. Respublikamizda bu ekin aksariyat holda urug'i qadalgandan keyin uni suvga bostirib qo'yish texnologiyasi asosida yetishtiriladi. Bunda hosil pishib yetilgunga qadar sholipoyalardagi suv sathini 5-7, 10-12, 15-20 santimetr qalinlikda ushlab turish talab etiladi [4]. Bu esa yiliga 18-24 m³ suvni talab qiladi. Sholining rivojlanish davrida suvning belgilangan normadan ko'p sarf qilinishi hosildorlikni oshirmaydi, aksincha, bu holat, ayniqsa, hozirgi vaqtda xo'jaliklarga iqtisodiy jihatdan katta ziyon keltiradi. Shuning uchun sholi etishtirishda suv tejoychi texnologiyalarni takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim amaliy ahamiyatga ega [2].

Natija va munozara. Suvli va suvsiz tuproq sharoitida sholining turli navlari urug'ini unib chiqishi va maysa hosil qilishini o'rganish maqsadida tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlarda 10 ta sholi navlari urug'idan foydalanildi. Tajribalar 3 ta variantda Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining "Botanika va o'simliklar fiziologiyasi" laboratoriyasida olib borildi. Urug' ekish uchun sig'imi 10 litrlik plastmassa va petri idishlaridan foydalanildi. Bunda 10 ta petri idishi, 10 ta suvli va tuproqli plastmassa idish va 10 ta tuproqli idishlar ishlatildi. Urug'lar har variantdagi idishlarga bir xil vaqtda (23.05.2025) va bir xil temperaturada (o'rtacha 28°C) ekildi.

1-rasm. Sholi navlarini urug'larini unuvchanligini laboratoriya sharoitida o'rganish.



Tajribaning 1-varianti nazorat variant bo`lib bunda har 10 ta nav sholining urug`i suvga 2-soat bo`ktirilib keyin petri chashkasiga ekib qo`yildi, 2-variantda 10 ta nav urug`i suvga 2 soat bo`ktirilib keyin 3-4 sm suv bostirilgan tuproqli idishga ekildi, 3-variantda har 10 ta nav urug`i suvga 2-soat bo`ktirilib keyin suvsiz tuproqli (topga kelgan) idishga ekildi.

Natijalar tahlil qilinganda ,1-variantdagi urug`lar 3 kunda to`liq unib chiqdi, unib chiqishi 94.6 % ni tashkil qildi va 7 kunda 4-5 sm uzunlikdagi maysa hosil qildi,

tajribaning 2-variantida urug`lar 4 kunda to`liq unib chiqdi, unib chiqishi 88.6 % ni tashkil qildi va 7 kunda 7-8 sm uzunlikdagi maysa hosil qildi, tajribaning 3-variantida urug`lar 6 kunda to`liq unib chiqdi, unib chiqishi 98.2 % ni tashkil qildi va 7 kunda 3-4 sm uzunlikdagi maysa hosil qildi.

Xulosa. Yuqoridagi tajribalar natijalari tahlil qilinganda, tuproqqa ekilgan sharoitda ham sholi navlari urug`lari yaxshi unib chiqdi va maysa hosil qildi. Unib chiqish intensivligi barcha navlarda o`rtacha 98.2 % ni tashkil qildi. Bundan ko`rinib turibdiki bu tadqiqot natijalarini dala sharoitiga tadbiiq qilish va tajribalarni davom ettirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. К.Йулдошев, С.Буриев, З.Тажиев, Ш.Закирова. Тежамкор технологиялар асосида шoли етиштиришда oқова сувлардан фойдаланишнинг самарадорлиги. Агро Илм-Ўзбекистон Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги журнали. -Тошкент -2022 №5- Б.81-83.

2. Yuldashev, K., Tajiev, Z., Buriev, S., Dusov, K., Zakirova, S., Shomuratova, P.,... & Saparova, G. (2023). Effectiveness of wastewater use in rice cultivation on basis of water-saving technologies. In E3S Web of Conferences (Vol. 421, p. 05001). EDPSciences.

3. "Agrobank". ATB.100 kitob to`plami. Sholi etishtirish. 3-kitob. Toshkent, 2021- B.7-67.

4. Yu. B. Saimnazarov, A. Q. Abdullayev, L. A. Mirzayev, Ch. T. Qashqaboeva, Q. K. O`razmetov. "Sholichilik" Toshkent. 2015. B.3-140